

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

2180,9 mlrd. so'm

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **6,3 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –
52,5 %

Norasmiy sektor ulushi –
41,1 %




	<p>Yirik pudrat tashkilotlari</p>	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi - 138,0 mlrd.so'm • o'sish surati - 75,8 %
	<p>Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar</p>	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi - 1145,6 mlrd.so'm • o'sish surati - 111,5 %
	<p>Norasmiy sektor</p>	<ul style="list-style-type: none"> • hajmi - 897,3 mlrd.so'm • o'sish surati - 102,8 %

Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **2180,9** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,8 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **138,0** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **6,3 %** hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,8 %** ni tashkil etdi. Kichik korhona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,5 %** i yoki **1145,6** mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,5 %** tashkil etdi, norasmiy sektorda esa **41,1 %** yoki **897,3**mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,8 %** ni tashkili etdi.





davomi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **79,5 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **119,0 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jami hajmning **6,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **83,4 %** ni tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa jami hajmning **13,8 %** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **150,8 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jami hajmdagi ulushi %)






Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (mlrd.so'm)



Qurilish ishlarining mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi (%)




Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so 'mda)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi. Ushbu hududda ob'ektlar o'tgan yilga nisbatan ko'payganligi va norasmiy sektor ulushi ortganligi sababli ushbu hududda qurilish ishlari hajmi 422,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Huddi shu ko'rstagich Qo'qon shahrida esa 226,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori bajargan shahar tumanlar jumladan: Oltiariq tumanida **148,8 %** ni Furqat tumanida **148,6 %** ni Farg'ona tumanida **144,8 %** ni Beshariq tumanida **143,4 %** ni hamda Qo'shtepa tumanlarida **135,2 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmini keskin oshishiga yanvar-oktyabr oylarida qurilish obyektlari soni oshganligi va jismoniy shaxslar tomonidan noturar (maishiy, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqalar) ob'ektlar qurilishini ko'payganligi sabab bo'ldi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **6,3 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, "Qo'qon neft-gaz parmalash ishlari" AJ tomonidan "Qoraqalpog'iston Respublikasida Qizilsholi №2 burg'ulash maydoni hamda Farg'ona viloyatida Polvontosh №162 burg'ulash maydonida qurilish ishlari amalga oshirilgan. Buxoro viloyati, Farg'ona viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasida Usyurt hududlarida neft va gaz quduqlarini (parmalash) qurilish ishlarini amalga oshirilgan." "Farg'ona ko'priklardan foydalanish" unitar korxonasi tomonidan "Farg'ona shahar aylanma yo'lining 223-227 kmlarida va A373 Toshkent-Osh yo'liga olib chiquvchi Sirdaryo daryosi ustidan ko'prik qurish ishlari, A373 yo'lining 0-15 kmlarida Sirdaryo daryosiga olib boruvchi yo'lining qurilish ishlari Farg'ona Marg'ilon shahar ichki yo'llarni joriy ta'mirlash, Sirdaryo ko'prikda ko'prik qurilmoqda, Farg'ona darvozasidan kiraverishdagi halqa yo'lida rekonstruksiya ishlari olib borilgan. Shunga asosan Qo'qon shahridagi yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari viloyatda bajarilgan va jami qurilish ishlari hajmining **29,4 %** ni tashkil etdi.

Hududda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **52,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **41,1 %** i to'g'ri keladi.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov
Aloqa telefoni: (0373)241-72-75